



SAYLOV JARAYONIDA MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISHNI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Salohiddin HAMROYEV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

salahhamraev83@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10628493>

ARTICLE INFO

Received: 30th January 2024

Accepted: 06th February 2024

Online: 07th February 2024

KEY WORDS

Saylov, xalqaro tajriba, Saylov kodeksi, muddatidan oldin ovoz berish, pochta orqali ovoz berish, ishonchli shaxs orqali ovoz berish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada saylov jarayonida odillik prinsiplarini ta'minlash maqsadida inson omilini kamaytirish, bunda muddatidan oldin ovoz berishda uchrashi mumkin bo'lgan ehtimollar ya'ni saylovchining shaxsan o'zi saylov uchastkasiga kelib ovoz berishda boshqa shaxslar ta'sirining oldini olish choralari, xorijiy davlatlar saylov qonunchiligida muddatidan oldin ovoz berish tartibi, turlari, bu boradagi xalqaro tajriba hamda ushbu yo'nalishda O'zbekiston saylov qonunchiligiga kiritish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı, dadil va izchil islohotlarning ustuvor vazifalari va asosiy yo'nalishlaridan biri – inson huquqlarini har tomonlama va keng ta'minlashdan iborat.

Islohotlar jarayonida mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan eng ilg'or demokratik tamoyillarni hayotga tatbiq etish, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini, saylov huquqini yanada kengroq ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda saylov qonunchiligining muttasil takomillashtirilib borilishi – erkin, demokratik davlatga xos juda muhim, mantiqiy, adolatli va zaruriy jarayon. Mamlakatimizda erkin va adolatli saylovlar va referendumlarning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, takomillashtirish va rivojlantirish borasida boy tajriba to'plangan[i].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega ekanligi, xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozimligi, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozimligini ko'rishimiz mumkin.

Saylovlar orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi hisoblanadi. Saylov – xalq o'z hokimiyati va xohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishning ifodasi, davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etishning negizi hisoblanuvchi ulkan ijtimoiy-siyosiy tadbirdir.



Falsafa fanlari doktori O.R. Musayev O'zbekistonda olib borilayotgan yangi demokratik va erkin mamlakatni yaratishga qaratilgan keng qamrovli va izchil islohotlar doirasida xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy tamoyilini hayotga tatbiq etish, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, saylov tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor berilayotganligiga to'xtalib, demokratik va adolatli saylovlar – bu demokratiyaning o'ta muhim va zarur shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi[ii].

Saylovlar zamonaviy demokratiyaning muhim instituti, xalq o'z xohish-irodasini bildirishi hamda siyosiy jarayonlarda, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, shu jumladan, hokimiyatning vakillik organlarini shakllantirishda ishtirok etishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Erkin saylovlar nafaqat hokimiyatni shakllantirish tamoyili, ayni paytda uning xalq oldidagi javobgarligi ifodasi hamdir[iii].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi[iv].

Konstitutsiya bilan belgilangan huquqi har bir vatandoshimiz uchun o'zi yoki o'zi tanlagan nomzodi orqali saylovlarda ishtirok etish, saylash hamda saylanish huquqini berib, xalqimiz shu orqali bugungi kuni hamda Vatan kelajagini belgilaydigan, yurt taqdiriga daxldor bo'lgan tanlovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek Konstitutsiyaning 128-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktyabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi, bundan Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o'tkazish hollari mustasnoligi belgilab qo'yilgan.

Shunga asosan hamda saylov qonunchiligiga ko'ra saylov aniq belgilangan kunda o'tkaziladi. Shunda saylov kuni davolanishda, o'qishda, ishda, xizmat safarida, sayohatda yoki boshqa biron bir sabablarga ko'ra o'z yashash hududida bo'lmagan fuqarolar saylov huquqidan qanday foydalanadi degan haqli savol tug'ilishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi 57-moddasi bilan saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqi berilgan[v].

Shuningdek, ushbu moddada muddatidan oldin ovoz berishni boshlash va tugatish muddatlari, ovoz berish jarayoni tashkil etish va o'tkazish tartibi ham aniq belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi. Muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish vaqti Markaziy saylov komissiyasi, tomonidan belgilanadi va saylovchilarning, kuzatuvchilarning e'tiboriga ommaviy axborot vositalari orqali yetkaziladi.

Muddatidan oldin ovoz berishni amalga oshirish uchun saylovchi saylov kunida bo'la olmasligining sabablari (ta'til, xizmat safari, xorijga chiqish va hokazo) ko'rsatilgan ariza asosida tegishli uchastka saylov komissiyasidan saylov byulletenini oladi. Saylovchi saylov



byulletenini olganligi haqida tegishli uchastka saylov komissiyasining kamida ikki nafar a'zosi hozirligida saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi.

Saylov byulleteni maxsus jihozlangan yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida saylovchi tomonidan to'ldiriladi.

Saylovchi qaror qabul qiladi va to'ldirilgan saylov byulletenini yopiq konvertga qoldiradi, konvert tegishli uchastka saylov komissiyasining seyfidan saqlanadi. Konvertning yelimlangan joyiga uchastka saylov komissiyasining ikki nafar a'zosining imzolari qo'yilib, ular komissiyaning muhri bilan tasdiqlanadi[vi].

Biroq, yuqoridagi tartibda bir necha holatda saylov jarayoniga va saylovchilarning ovozlari nisbatan boshqa shaxslarning aralashmasligiga hamda saylov jarayoni to'liq nazoratda, ishonchli tarzda o'tishiga shubha tug'iladi.

Jumladan, saylovchining tanlovi aks ettirilgan byulleten konvertga solinadi va yelimlanib, saylov komissiyasining ikki nafar a'zosi tomonidan imzolangan holda konvertga komissiya muhri bosiladi. Muhrlangan konvert komissiyaga tegishli bo'lgan seyfdan saylov kuniga qadar saqlanadi. Ushbu holatda komissiya mas'ul xodimlari tomonidan seyfdan saqlanayotgan konvertdagi byulletenlar o'zgartirilmasligini yoki buzilmasligini hech kim kafolatlay olmaydi. Bundan tashqari, muddatidan oldin ovoz berish saylov kuni uchun kun oldin to'xtatilishini inobatga olsak, taxminlar yanada kuchayadi.

Xorijiy davlatlarning saylov qonunchiligi tahlilini olib borganimizda turli davlatlarda turlicha amaliyotlar joriy etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun, nafaqat qo'shni respublikalar **Qozog'iston** va **Qirg'iziston**, shuningdek Turkiya, Ozarbayjon, Vengriya, Italiya, Ispaniya, Fransiya va boshqa ko'plab davlatlar saylov qonunchiligida muddatidan oldin ovoz berish (bunda, pochta, telefon yoki ishonchli shaxs orqali ovoz berish holatlari kiritilmagan holda saylovchining shaxsan o'zi ovoz berishi nazarda tutilmoqda) tartibi mavjud emas[vii].

Germaniyada shaxsan muddatidan oldin ovoz berish imkoniyati yo'q, lekin saylov huquqiga ega bo'lgan barcha fuqarolarga pochta orqali ovoz berish imkonini beradi. Agar saylovchi saylov kuni saylov uchastkasiga kela olmasa, unda pochta orqali ovoz berish uchun ariza berish mumkin. Bunday hollarda saylovchi barcha kerakli hujjatlarni oldindan qabul qilib oladi. Ular to'ldirilishi va oldindan (rasmiy saylov kuni oldin) qaytarib yuborilishi kerak.

Ovoz berish uchun taklifnomaning (Wahlbenachrichtigung) orqasida saylovchi tegishli shaklni, shuningdek, elektron pochta manzilini, veb-sayt manzilini yoki QR-kodinini qoldiradi. Ular yordami bilan saylovchi pochta orqali ovoz berish uchun ariza berishi mumkin[viii].

Belarusiya saylov qonunchiligida ham muddatidan oldin ovoz berish tartibi (Saylov kodeksining 53-moddasi) mavjud bo'lib, unda belgilangan tartib O'zbekiston saylov qonunchiligiga o'xshash.

Farqli jihati shundaki Belarusiya muddatidan oldin berilgan ovozlar alohida seyfdan emas balki saylov qutisining o'zida saqlanadi.

Shu o'rinda, huquqshunos Aleksey Pyatrenka muddatidan oldin ovoz berish jarayoni haqida o'z fikrlarni bayon etib quyidagilarni bildiradi: Muddatidan oldin ovoz berish 5 kun davom etadi va shu vaqt davomida bir xil saylov qutisidan foydalaniladi. Mustaqil



kuzatuvchilar tomonidan saylov qutisini nazorat qilish faqat saylov uchastkasi ishlayotgan vaqtda va saylov qutisi muhrlanganda amalga oshirilishi mumkin, shu bilan birga uchastka saylov komissiyasi a'zolarining saylov uchastkasi tugaganidan keyin ham ovoz berish xonasida qolgan holatlari ma'lum. Kechasi saylov uchastkasi qulflanadi, kalit esa uchastkani qo'riqlovchi politsiyachida saqlanadi. Politsiya xodimlari qo'riqlash tartibini komissiya raisi bilan birgalikda belgilaydi.

Tushlik vaqtidagi tanaffus va tungi vaqtda saylov qutisidagi uyaga faqat komissiya raisi va uning a'zolaridan birining imzosi bo'lgan qog'oz varaq muhrlanadi. Kuzatuvchilar urnaning saqlanishini nazorat qilish maqsadida ushbu varaqda o'z imzolarini qo'yishga haqli emas.

Bundan tashqari, Belarusiya saylov amaliyotida saylov qutilarini muhrlash uchun barcha komissiyalar uchun mutlaqo bir xil standart muhrlar qo'llaniladi. Saylov uchastkalarini individual muhrlar bilan ta'minlash to'g'risidagi takliflarga javoban Markaziy komissiya saylov qutilarini muhrlash tartibi allaqachon belgilab qo'yilgan Saylov kodeksiga o'zgartirish kiritish huquqiga ega emasligini ta'kidlaydi[ix].

Buyuk Britaniyada saylovda ishtirok etishning bir qator usullari mavjud bo'lib bular shaxsan ovoz berish, ishonchli shaxs orqali (proxy voting) ovoz berish yoki pochta orqali ovoz berish kabi turlardan iborat.

Sog'lig'i, kasbiy yoki xizmat vazifalari yoki chet elda vaqtincha bo'lgani sababli saylov uchastkasiga shaxsan kela olmagan saylovchilar o'zining yaqin qarindoshi yoki boshqa tanishiga ishonchnoma berish orqali saylovda ishtirok etishi va ovoz berishi mumkin[x]. Ushbu huquq ko'plab Yevropa davlatlari xususan, Fransiya, Polsha, Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya fuqarolariga berilgan[xi].

Mazkur tizim saylov jarayonining yanada adolatli o'tishini, fuqarolarda turli xil tushunmovchiliklar va gumonlar kelib chiqishining oldi olishini hamda saylov prinsiplariga to'liq rioya etilishini ta'minlash, saylov jarayonida fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, muddatidan oldin ovoz berish tizimidan ko'zlangan asosiy maqsad saylovchilarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash uchun ular saylov o'tkaziladigan kunda o'z yashash hududida bo'lmaganda ham saylash imkoniyatlarini ta'minlash ekanligi ko'rsatilgan.

Saylov jarayonida yoki saylov o'tkazilishidan oldin saylovchilarning asosiy qismi albatta respublikaning muayyan hududlariga xizmat safari yoki boshqa maqsadlarda borishi mumkin.

Ushbu holatda saylov qonunchiligida saylovchi saylov o'tkaziladigan kunda o'z yashash manzilida bo'lmasa ariza bilan o'zi ro'yxatga olingan saylov uchastkasiga ariza bilan murojaat qilishi, arizasida saylov kuni respublikaning qaysi hududida bo'lishi mumkinligini aks ettirganda uning shaxsiy ma'lumotlari o'sha hududdagi saylov uchastkasiga elektron tizim orqali yuborilib, shu yerdagi saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur huquqni xorijiy davlatlarga sayohat, davolanish yoki xizmat safariga ketayotgan yurtdoshlarimizga ham berish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Saylov kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining "Referendum to'g'risida"gi qonuniga tegishli o'zgartirishlarni kiritish, bunda:

1) saylov qonunchiligiga ishonchli shaxs orqali ovoz berish tartibini joriy etish;



- 2) saylov kuni o'z yashash hududida bo'lmaydigan saylovchi respublikaning qaysi hududida bo'lishi mumkinligini bildirib ariza bilan murojaat etganda uni o'sha hududdagi saylovchilar ro'yxatiga kiritilishini belgilash;
- 3) amaldagi qonunchilikda aks ettirilgan muddatidan oldin ovoz berish tizimini qonunchilikdan chiqarib tashlash taklif etiladi.

References:

1. Zayniddin Nizamxodjayev. Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 20-dekabr.
2. O.R. Musayev. O'zbekistonda saylov tizimining demokratik tamoyillari. 26.08.2021-y.
3. Mirzatilla Tillaboyev. Demokratik huquqiy davlatning shakllanish sharoitida saylov instituti xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning real mexanizmidir. <https://kun.uz/uz/news/2016/10/06/demokratik-ukukij-davlatning-sakllanis-saroitida-sajlov-instituti-halk-okimiatciligini-amalga-osirisning-real-mehanizmidir?q=%2Fnews%2F2016%2F10%2F06%2Fdemokratik-ukukij-davlatning-sakllanis-saroitida-sajlov-instituti-halk-okimiatciligini-amalga-osirisning-real-mehanizmidir>
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6445145>
5. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4386848>
6. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son
7. <https://www.idea.int/news/special-voting-arrangements-svas-europe-country-postal-early-mobile-and-proxy-arrangements>
8. Germaniyada ovoz berish. <https://handbookgermany.de/en/elections>
9. Nima uchun muddatidan oldin ovoz berish yomon. <https://dumka.me/dosrochka>
10. "Application to vote by proxy at a particular election or referendum". Cabinet Office, UK Government. 27 April 2020. 2020-yil 31-iyul.
11. <https://www.idea.int/news/special-voting-arrangements-svas-europe-country-postal-early-mobile-and-proxy-arrangements>

i. Zayniddin Nizamxodjayev. Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 20-dekabr.

ii. O.R. Musayev. O'zbekistonda saylov tizimining demokratik tamoyillari. 26.08.2021-y.

iii. Mirzatilla Tillaboyev. Demokratik huquqiy davlatning shakllanish sharoitida saylov instituti xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning real mexanizmidir. <https://kun.uz/uz/news/2016/10/06/demokratik-ukukij-davlatning-sakllanis-saroitida-sajlov-instituti-halk-okimiatciligini-amalga-osirisning-real-mehanizmidir?q=%2Fnews%2F2016%2F10%2F06%2Fdemokratik-ukukij-davlatning-sakllanis-saroitida-sajlov-instituti-halk-okimiatciligini-amalga-osirisning-real-mehanizmidir>

iv. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6445145>

v. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4386848>

vi. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son

vii. <https://www.idea.int/news/special-voting-arrangements-svas-europe-country-postal-early-mobile-and-proxy-arrangements>

viii. Germaniyada ovoz berish. <https://handbookgermany.de/en/elections>

ix. Nima uchun muddatidan oldin ovoz berish yomon. <https://dumka.me/dosrochka>

x. "Application to vote by proxy at a particular election or referendum". Cabinet Office, UK Government. 27 April 2020. 2020-yil 31-iyul.

xi. <https://www.idea.int/news/special-voting-arrangements-svas-europe-country-postal-early-mobile-and-proxy-arrangements>